

PROKURATURA ORGANLARI XODIMLARINING KASBIY AXLOQI VA ETIKASI

Jafarov Mahmudxon Xoshimxon o'g'li,

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,
Yuridik fakulteti 1-bosqich talabasi.*

Ilmiy rahbar: J. O'roqov

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada prokuratura organlari xodimlarining kasbiy-axloqiy etikasi, o'zini tutish qoidalari, xizmat faoliyati davomida qanday prinsiplarga rioya qilishi, ya'ni ular xodim sifatida aholiga xizmat ko'rsatish, qonuniylikni himoya qilish davrida asosiy e'tiborini qanday omillarga qaratishi zarur ekanligi keltirib o'tilgan. Shuningdek, ushbu maqolani o'qish orqali siz O'zbekiston Respublikasining Prokuratura tizimi va prokuratura xodimlari, o'z navbatida ularga qo'yilgan talablar, axloqiy qoidalar, cheklovlar haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lishingiz mumkin. Shuni ta'kidlab o'tishimiz lozimki, ushbu kasbga bo'lgan qiziqishning, kelgusida prokuratura xodimi sifatida faoliyat yuritmoqchi bo'lgan yoshlarning soni ko'p ekanligi, mazkur maqolada keltirilgan hamda tahlil etilgan ayrim masalalarning dolzarb ekanligini anglatadi. Shu nuqtai nazardan, kelgusida ushbu sohada faoliyat yuritmoqchi bo'lgan bo'lajak yuristlar uchun ushbu maqolaning ahamiyati sezilarli darajada deya olamiz, chunki maqolani o'qish orqali ular prokuratura xodimlarining faoliyat-jarayoni haqida atroflicha nazariy bilimlarga ega bo'lishlari mumkin.

Kalit so'zlar: prokuratura, prokuratura xodimi, kasbiy axloq, etika, qonuniylik, o'z xizmatiga sodiqlik.

ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ ЭТИКА И МОРАЛЬНЫЕ ПРИНЦИПЫ СОТРУДНИКОВ ПРОКУРАТУРЫ

Аннотация. В данной статье рассматриваются профессиональная этика сотрудников прокуратуры, правила поведения, принципы, которым должны следовать сотрудники прокуратуры в своей деятельности, то есть, на что им следует обращать особое внимание при служении населению и защите верховенства права в качестве своих служащих. Также, прочитав статью, можно получить информацию о системе прокуратуры Республики Узбекистан и сотрудниках прокуратуры, а также о требованиях, этических нормах и ограничениях,

предъявляемых к ним. Следует отметить, что большое количество людей, заинтересованных в этой профессии, и число людей, желающих работать в прокуратуре в будущем, указывают на актуальность некоторых из представленных и проанализированных в статье вопросов. То есть, можно сказать, что данная статья имеет большое значение для будущих юристов, желающих работать в этой сфере, поскольку, прочитав ее, они могут получить краткое представление о том, как работает прокуратура.

Ключевые слова: прокуратура, сотрудники прокуратуры, профессиональная этика, законность, преданность своей службе.

PROFESSIONAL ETHICS AND MORALS OF PROSECUTORIAL OFFICIALS

Abstract. *This article discusses the professional ethics of prosecutorial officials, the rules of conduct, the principles that prosecutorial officials should adhere to during their activities, that is, what they should pay more attention to when serving the population and protecting the rule of law as employees. Also, by reading the article, you can get some information about the Prosecutor's Office system of the Republic of Uzbekistan and prosecutorial officials, as well as the requirements, ethical rules, and restrictions imposed on them. It should be noted that the large number of people interested in this profession and the number of people who want to work as prosecutorial officials in the future indicate that some of the issues presented and analyzed in the article are relevant. That is, we can say that the importance of this article is significant for future lawyers who want to work in this field in the future, because by reading the article they can get a brief overview of how the prosecutor's office works.*

Keywords: *prosecutor's office, prosecutor's office employees, professional ethics, legality, loyalty to one's service.*

Kirish. Bugungi kunda dunyoning har bir mintaqasida qonuniylikni ta'minlash jamiyatning rivojlanishi borasidagi asosiy talablardan biri bo'lib kelmoqda. Bu borada dunyoning deyarli barcha mamlakatlari o'z yurisdiksiyasida qonuniylikni ta'minlash, uni himoya qilish uchun islohotlar amalga oshirishmoqda. Jumladan, yurtimizda ham ushbu masalaga oid chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi o'z oldiga insonparvar va demokratik davlat qurish hamda ochiq va adolatli jamiyat barpo etish vazifasini qo'yar ekan avvalo, qonuniylikni o'rnatmog'i, uni mustahkamlamog'i lozimdir. Buning uchun yurtimizdagi barcha fuqarolar, davlat xizmatchilari, mansabdor shaxslar, davlatning oliy organlari mansabdorlari shaxslari, shuningdek, prezident ham, umuman barcha insonlar qonunlarga og'ishmay rioya etishlari shart. Shundagina biz ko'zlagan

maqsadimizga to'raligicha tez va oson erisha olamiz. Darhaqiqat, mashhur huquqshunos olim Sh.L.Monteskening o'z asarida "Qonunlar bo'lmagan joyda erkinliklar ham bo'lmaydi" deya ta'kidlagani bejizga emas. Chunki qonuniylik mustahkam o'rnatilmas ekan, to'laqonli erkinlikda yashash, huquq va erkinliklarni qonuniy himoya qilish, demokratiyani rivojlantirish, ma'lum davlatning oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishi kabi masalalarni amalga oshirish mutlaqo ilojiydir. Hozirda mamlakatimizda qonuniylikni ta'minlash hamda uning ustidan nazorat borasida keng vakolatlar prokuratura organlariga berilganligi bois asosiy e'tiborni mazkur organlardagi tartib-taomillarning o'rnatilganlik holati, qonuniylikning ta'minlanganlik darajasiga qaratishimiz maqsadga muvofiqdir. Shunday ekan mazkur maqolada ushbu organ faoliyatida belgilangan tartib, qonuniylikning ta'minlanganlik darajasi, shuningdek, hozirgi globallashuv jarayonida dolzarb hisoblangan prokuratura xodimlarining kasbiy-axloqiy qoidalari haqida atroflicha so'z yuritiladi.

Asosiy qism. Bugungi kunda yurtimizda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning, jumladan, prokuratura organlarining mavqei ortib bormoqda. Qonunchiligimizda belgilanganidek, O'zbekiston Respublikasida qonunlarni aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organ prokuratura hisoblanadi. Prokuratura xodimlari o'z faoliyatini amalga oshirar ekan, Konstitutsiya, "Prokuratura to'g'risida"gi qonun hamda boshqa qonunchilik normalariga amal qilishlari kerak, shuningdek, ushbu organ xodimlari o'z faoliyati davrida tashkilotning ichki tartib nizomlari va odob-axloq qoidalari qat'iy rioya qilishlari talab etiladi.

Prokuratura organlarida xizmat ko'rsatishga bo'lgan ishtiyoq ko'pchilik bo'lajak yuristlarning maqsadi hisoblanishi sir emas. Biroq, so'z o'rnida shuni eslatib o'tishimiz kerakki, boshqa davlat organlari kabi prokuratura organlarida ham lavozimga qo'yilgan qat'iy talablar mavjud. Qonunga muvofiq ravishda, oliy yuridik ma'lumotga ega, zarur kasbiy fazilatlari bo'lgan, zimmasiga yuklanadigan vazifalarni bajarishga sog'lig'i imkon beradigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari prokuratura organlarining ma'lum lavozimni egallashi mumkin (qoida tariqasida prokurorlik lavozimida faoliyat yuritish uchun fuqaro 25 yoshga yetgan bo'lishi zarur).

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasining prokuratura organlari xodimlarining faoliyatiga oid kasbiy-etika qoidalari o'rganishimiz asosida quyida har bir xodim uchun bu qoidalarining muhimlik darajasini yetarlicha ochib berishga harakat qildik. Prokuratura organlari faoliyatini belgilangan qonunlar asosida amalga oshirish, qat'iy belgilab qo'yilgan prinsiplarga og'ishmasdan rioya qilgan holda faoliyat yuritishini ta'minlash uchun, avvalo, organ xodimlarining ish-faoliyatida kasbiy qoidalarga rioya etishlarini to'la nazorat qilish lozim. Chunki, organ faoliyati negizida xodimlarning irodasi va kasbga bo'lgan sadoqati yotadi. Prokuratura xodimlari faoliyati davomida bir qancha

prinsiplarga rioya etishlari zarur. Qonuniylik, adolatlilik, hallollik, xolislik, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik va boshqa shu kabi qat'iy qoidalar shular jumlasidandir. Bularga rioya etmaslik qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'lishi hammamizga ma'lum. Bulardan tashqari prokuratura xodimlari (davlat xizmatchilari) xulq-atvorning umumiy qoidalariga rioya etishi lozim. Xususan, ular davlat xizmatining obro'siga putur yetkazishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlardan tiyilishi, mas'uliyat, kasbiga sadoqat va halollikni kundalik shoriga aylantirishi, vazifalarni bajarishda hamkasblariga ko'maklashishi, xushmuomalalik, e'tiborlilik va hushyorlik bilan fuqarolarda davlatga nisbatan ishonch va hurmat hissini uyg'otishi, asosiysi fuqarolarning ijtimoiy kelib chiqishi, iqtisodiy ahvoli va boshqa omillaridan qat'i nazar, ular bilan bir xil, samimiy, odob doirasida muomalada bo'lishlari lozim. Ammo, hozirgi kunda prokuratura xodimlari jamiyatning umumiy axloq normalariga rioya etmayotganliklarini, fuqarolarga nisbatan bepisandlik bilan muomalada bo'layotganliklarini hamda ularga nisbatan ko'plab adolatsiz holatlarni amalga oshirishayotganini ko'rishimiz tabiiy holatga aylanmoqda. Bundan tashqari ayrim xodimlar o'z vakolatini suiiste'mol qilib, moddiy manfaat yuzasidan qonunga xilof xatti-harkatlarni amalga oshirmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, bu kabi holatlar prokuratura organlari faoliyatini tubdan yemirilishining asosiy sabablaridan biridir. Ushbu holatni mazkur organ faoliyatining jiddiy muammolaridan biri sifatida ko'rsatishimiz mumkin. Ya'ni prokuratura xodimlarining o'z kasbidan foydalangan holda o'z manfaati yo'lida biror faoliyatni amalga oshirish, moddiy qimmatliklar orttirish, korrupsiyaga yo'l qo'yish holatlari ko'p kuzatilishi kelgusida bu kabi holatlarning ko'payishi uchun zamin yaratmoqda. Bizning fikrimizga ko'ra, bunday vaziyatlarni organ faoliyatidan butunlay yo'qotish yoki oldini olish va kamaytirish, uchun qonunchiligimizda jazo tizimini kuchaytirishimiz maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, prokuratura organiga yangi qabul qilinayotgan davlat xizmatchisiga bu kabi illatlarni sodir etmasligini, aks holda unga nisbatan davlat tomonidan keskin va qattiq sanksiyalar qo'llanilishini uqtirish, umuman olganda uni kelgusida yuqorida keltirilgan salbiy illatlardan birortasini sodir etmasligi uchun zarur bo'lgan barcha yo'llarni qo'llash, uni doimiy tarbiyalab borish qat'iy zarurdir. Prokuratura xodimi sifatida prokuror o'z faoliyatini amalga oshirar ekan, avvalo, u jamiyat manfaatini himoya qilishini, davlat nomidan ish olib borishini, shu bilan birga sudlanuvchining qonuniy manfaatini, qadrini himoya qilishi lozim ekanligini unutmasligi lozim. Prokuror o'z nutqida ayblanuvchiga nisbatan qo'pollik qilishi, ustidan kulishi, uning ijtimoiy kelib chiqishiga yoki boshqa shu kabi asoslariga ko'ra hurmatsizlik bilan munosabatda bo'lishi ta'qiqlanadi. Yana shuni ta'kidlab o'tish lozimki, prokurorning axloqiy-huquqiy majburiyati obyektiv va xolis bo'lishi talab etiladi, ya'ni u o'z vazifasini shaffof, qonunga bo'ysungan holda hamda korrupsiyaga toqatsizlik bilan amalga oshirishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni 2-moddasida: “O‘zbekiston Respublikasining prokuratura organlari asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta‘minlash, qonuniylilikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika ishlaridan iborat” ekanligi belgilab qo‘yilgan. Bu vazifalar albatta organ xodimlari tomonidan belgilangan qoidalariga to‘la-to‘kis rioya qilingan holdagina amalga oshiriladi. Bundan tashqari mazkur Qonunda prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari ham keltirilgan (4-modda). Ushbu Qonun prokuratura organi xodimlarining faqatgina vakolat va vazifalarini belgilab qolmasdan, ularga nisbatan ma‘lum cheklovlarni ham belgilab beradi. Masalan, ular faoliyati davomida siyosiy partiyalarga a‘zo bo‘la olmaydi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, prokurorlar va prokuratura organlarining boshqa xodimlari, bir so‘z bilan aytganda davlat irodasini ifodalaydi va o‘z navbatida xalqda, oddiy fuqarolarda davlatga, uning xizmatiga nisbatan ma‘lum ko‘nikmani shakllantirishda asosiy rolni amalga oshiradi. Shunday ekan ular xizmat vazifasiga kirishishi bilanoq, uni yakunlaguniga qadar bo‘lgan muddat mobaynida ulkan mas‘uliyat bilan yondashishi, butun faoliyatida halollikni odat qilishi, fuqarolarning manfaatini o‘zining shaxsiy manfaatlaridan ustun qo‘yishi lozim. Bularga rioya qilmas ekan u o‘z faoliyatida yuqori marralarga erisha olmaydi. Eng asosiysi shundaki, yuqoridagilarga amal qilmaslik oqibatida prokurorlar, organ xizmatchilari qonunchilikni ijrosini ta‘minlash, uning ustidan nazoratni amalga oshirish jarayonida birmuncha sezilarli xatoga yo‘l qo‘yadilar, buning oqibatida davlat rahbari va boshqa yuqori vakillik organlari tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar o‘z samarasini bermaydi. Mamlakatda qonun himoyachisi tomonidan qonunning buzilishi fuqarolarda salbiy taassurot uyg‘otadi, ular orasida ham qonun normalarini keskin buzishlar keng tarqaladi. Qisqacha qilib aytsadigan bo‘lsak, ma‘lum davlatning kelajagi shubha ostida qoladi, konstitutsiyaviy tuzum esa asta sekinlik bilan yemirilib boradi. Shu boisdan, fikrimizga ko‘ra, bunday jiddiy oqibatlarni keltirib chiqarmaslik uchun mazkur organ xodimlari faoliyatini tartibga solishda ko‘proq norma yaratishdan ko‘ra mavjud normalarning ijrosini ta‘minlash, ularga rioya qilishni qat‘iylashtirish zarur, hamda nafaqat prokuratura organlari xodimlarini, balki jamiki davlat xizmatchilarini qonunga bo‘ysunish va halollik ruhida tarbiyalash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145> – “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi”.
2. <https://lex.uz/uz/docs/-106197> – “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonun

3. Huquqiy ko`nikma va metodologiya. Toshkent – 2022.
4. <https://prokuratura.uz>
5. <https://proacademy.uz>
6. <https://lex.uz/uz/docs/-6236838> – “Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Vazirlar Mahkamasi qarori
7. <https://lex.uz/uz/docs/-6145972> – “Davlat fuqarolik xizmati to’g’risida”gi qonun
8. <https://rustudy.uz>
9. “Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar” darslik. – Toshkent. 2023.